

**KICHIK MAKTAB YOSHIDA BOLA SHAXSI RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Atajanova Marjona G'ayrat qizi

Axmadova Sevinch

TerDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: *kichik maktab yoshida bola shaxsi rivojlanishining psixologik xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxs, biologik, psixika, faoliyat, affect, intellect, bilish jarayonlari, yoshga xos xususiyatlari, ehtiyojlar.*

Kichik maktab davri 6-7 Yoshdan 9-10 Yoshgacha davom etadi. Ayrim 6 Yoshli bolalar ota-onasining xohishi bilan hali o'qishga tayyor bo'lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo'yishadi. Afsuski, o'qish davomida aqliy-ruhiy zo'riqish oqibatida turli xil kasalliklarga chalinib, jismoniy va psixik rivojlanishda nuqsonlar paydo bo'ladi. Bunday bolalarda eng avvalo miya strukturasi va nerv psixik jarayonlarining maktabda o'qish uchun to'liq etishmaganligi, ko'ruv harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqiy fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari motivatsiya, irodaviy jihatlarining ayniqsa, ixtiyoriy diqqat va xotiraning shakllanmaganligi, xatti-harakatlarni ixtiyoriy boshqaruvdagi muammolar, bir so'z bilan aytganda hali "O'quvchi ichki pozitsiya"sining shakllanmaganligi maktabda o'qishga tayyor bo'lmagan bolalarning muqaffaqiyatli o'zlashtirib ketishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagoglar, ota-onalar, bolalarni erta maktabga berishning foyda yoki zarari to'g'risida o'ylaganlarida inson miyasi rivojlanishining neyrofiziologik qonuniyatlarini ham alohida e'tiborga olishlari lozim. Bolani erta o'qish, yozish, sanashga o'rgatib uning bilish jarayonlari zo'riqtirilsa, bolaning emotsional hissiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo'ladi. Bundan bolalarning emotsional hissiy jarayonlarining kechishida yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklar sodir bo'ladi. Bunday xolatda energiya taqsimlanishining majburan buzilishi sodir bo'lib, u 7-8 Yoshli bolalarni qo'rquv, agressivlik yoki giperaktivlik holatlariga olib keladi. Bu bolani maktabda o'qishga tayyorlash kerak emas degan fikr emas, lekin bolaning aqliy rivojlanishiga erta o'qishni, sanashni, yozishni o'rgatish bilangina erishib bo'lmaydi.

6-7 Yoshli maktabga tayyor bolada "**Men shuni xohlayman**" motividan "**Men shuni bajarishim kerak**" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, masalan, ma'lum darajada qo'rqo'vni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi.

Jismoniy faollik - sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni engishdagi tabiiy ehtiyojdir. Bu Yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat bo'ladilar. Bu jismoniy harakat bolaning atrofdagi narsalarga qiziqish bilan qarayotganligi, ularni o'rganishga intilayotgani bilan ham bog'liqdir. Bolaning jismoniy va psixik faolligi o'zaro bog'liqdir. CHunki, psixik sog'lom bola harakatchan bo'ladi, charchagan, siqilgan bola esa deyarli hech narsa bilan qiziqmaydi. **Psixik faollik** - bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir. Psixik faollik deganda, bolani o'zini bilishga nisbatan ehtiyoji ham tushuniladi.

Kichik maktab davrida o'qish faoliyati bilan shug'ullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarda asosan farq qila olish, ko'rish va eshitish sezgilari ayniqsa tez o'sadi. 7-10 Yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45% ortishi, 10-12 Yoshgacha bolalarda esa 65%gacha ortishi rus olimlari tomonidan aniqlanilgan. Kichik maktab o'quvchilarini rasm chizishga o'rgatish ranglarni farqlash sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunga sabab bir tomondan o'qituvchining doimiy ravishda unga ko'rsatadigan faol ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ko'rsatadigan ta'siridir. O'qituvchining dars jarayonida har bir o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi uchun qulay imkoniyati bor. O'quv faoliyatining boshlanishi jarayonida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomala-munosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. CHunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Bundan tashqari bolaning oilasi va tevarak atrofdagi odamlar bilan ham muloqotida katta o'zgarishlar bo'ladi. Oilada endi bolani ma'lum bir majburiyat va huquqlari bo'lgan shaxs sifatida qabul qilinadi va bu o'z-o'zidan bola bilan bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi. Atrofdagilar bilan

munosabatda esa bola o'z "Men"ini namoyon etishga harakat qiladi. L.S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, faqat jamoaviy hayot ichida va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bolaning individual xulq-atvori shakllanadi. Faqat o'qituvchigina o'quvchisiga turli qat'iy talablar qo'yib, ularning xatti-harakatlarini baholay oladi, bolaning ijtimoiylashuviga sharoit yaratib, uni huquq va burchlar-ijtimoiy maqoni tizimida standartlashuviga olib kela oladi. Kichik maktab Yoshidagi bolalar ta'lim olish munosabati bilan mantiqiy, ya'ni ma'nosiga tushunib esda qoldirish qobiliyati o'sib boradi. Esda qoladigan materialning hajmi kengayib boradi, materialning mazmunini tushunish ham chuqurlashadi va murakkablashadi. Ba'zan boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto mazmuni tushunarli bo'lgan materialni ham ma'nosiga e'tibor bermasdan, mexanik ravishda o'rganib oladilar. Respublikamizning psixolog olimi E.G'.G'ozievning fikriga ko'ra, buning sabablari quyidagilar:

1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda yaxshiroq rivojlangani uchun ham ma'lumotlarni aynan, o'zgarishsiz eslab qolish imkonini beradi;

2) o'quvchilar o'qituvchi qo'ygan vazifani anglab etmaydilar, natijada uning "to'g'ri tushuntirib ber" degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar; 3) ularning nutq boyligini etishmasligi (ilmiy atamalar, til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish, unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni so'zma-so'z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o'quvchilar matnni to'g'ri usullar bilan eslab qolishni bilmaydilar. Bunday holat shu Yoshdagi bolalarda albatta bo'lishi kerak emas. Mexanik esda qoldirish ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarida mantiqiy xotirani o'stirishga etarli e'tibor bermagan hollarda bo'lishi mumkin.

O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud. **Avtoritar uslubdagi** o'qituvchining o'quvchilari o'qituvchi sinfda bo'lmagan vaqtlarda o'z-o'zini boshqarish malakasi bo'lmaganligi uchun ham intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar. Bu asosan, to'polonda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining mustahkam irodasini ko'rsatadi, lekin bu iroda natijasida o'quvchida "ustozim meni yaxshi ko'radi" degan fikri emas, balki qo'rquv hissi mavjud bo'ladi.

Demokratik uslub o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida bolalar ijobiy emotsiyani,

o'ziga ishonch, o'z muvafaqqiyati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. SHu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda, o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi, o'zini-o'zi boshqarishga, o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu Yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida shni aytish mumkinki, Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotsional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi. Boshlang'ich maktabda bolalar yangi talablarni qabul qiladilar va ularga qat'iyatlilik bilan amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanadi. CHunki uning bolaga bo'lgan munosabati uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. Kichik maktab yosh davri bolalardagi asosiy faoliyat o'qish hisoblanadi. Ular bu yoshda diqqatlarini tez jamlay olmaydi uzoq vaqt diqqatini bir joyda ushlab turolmaydi. Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan ta'lim- tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan ko'p darajada takomillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK

XIZMATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.

10. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.

109. 2. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>

110. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

111. Ashurova Sh.F. (2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL) <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)

112. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

113. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

114. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.

115. Karimova M.N. Ashurova.Sh.F, (2023) Professional ta'limda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. Educational Research in Universal Sciences. OAK. 369-373-b

116. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.

117. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов

по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

118. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.

119. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 447-453.

120. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

121. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

122. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

123. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

124. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.

125. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

126. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.

127. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.

128. Ньѣматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.

129. Ne'Matullayeva, S. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА О 'YIN ТЕРАПИЯСИНИ ҚО'ЛЛАШГА ОИД ҚАРАШЛАР. Science and innovation, 1(B4), 444-449.

130. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(4), 86-88.

131. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. *O'zbekiston milliy universiteti xabarlari*, 1(6).

132. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10)*.

133. Нейматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(2), 31-33.

134. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.

135. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 43–46. Извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>